



## OMMAVIY SPORTNI YANADA RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Turg'unov Baxtiyor Uralovich*

*JDPI, Jismoniy madaniyat fakulteti, sport turlarini o'qitish metodikasi  
kafedrası*

**Annotatsiya:** *Bugungi kunda ommaviy sportni keng miqyosda rivojlantirish ustuvor masalalardan biridir. Ushbu maqolada ommaviy sportni yanada rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z borgan.*

**Kalit so'zlar:** *Olimpiada o'yinlari, sog'lom turmush tarzi, xalqaro bellashuv, sport salohiyati, ommaviy sport, qobiliyat, iste'dod, ma'naviy sog'lomlik.*

Barchamizga ma'lumki, keyingi yillarda mamlakatimiz aholisi o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish maqsadida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni keng miqyosda rivojlantirish ustuvor masalalardan biriga aylanib bormoqda. Yurtimiz vakillarining turli xalqaro bellashuvlarda, Olimpiada o'yinlari va Jahon birinchiligi musobaqalarida yuksak natijalarga erishayotgani, respublikamizning sport salohiyati yanada oshayotgani, markazda va joylarda jahon andozalariga mos muhtasham sport majmualari, zamonaviy stadion va kortlar barpo etilayotgani, o'quvchi va talaba-yoshlar o'rtasida uch bosqichdan iborat bo'lgan "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada" o'yinlari tobora ommalashib borayotgani ayniqsa e'tiborlidir. Shu bilan birga, ommaviy sportning inson va oila hayotidagi rolini, uning jismoniy va ma'naviy sog'lomlikning asosi ekanini targ'ibot va tashviqot qilish, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarga o'z qobiliyat va iste'dodini ro'yobga chiqarishda sportning ahamiyatini ochib berish, dunyoda O'zbekistonning obro'-e'tiborini yanada oshirish borasida ommaviy axborot vositalari o'zining munosib o'rnini hamon topa olmayotganini, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish zarurligini ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori sohadagi yana bir muhim hujjat bo'ldi. Ushbu qaror bilan O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish dasturi qabul qilindi. Dasturda 2017-2021-yillarda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish uchun 995,2 milliard so'mdan ziyod mablag' sarflanishi, sport maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida 167 ta sport inshooti, jumladan, 90 ta sport majmuasi va 77 ta suzish havzasini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, jihozlash va qayta jihozlash nazarda tutilgan.

Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy sport musobaqalarini tashkil etish, uning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va ma'naviy sog'lomlikning asosi ekanini chuqur anglash, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash,



ularda bardoshlilikni shakllantirish, ularga o'z qobiliyat va iste'dodlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida muhim va dolzarb vazifalarni amalga oshirish muhim xisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Chunki sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptiradi. Turli kasalliklar, yoshlar o'rtasida zararli odatlarning oldini oladi. Sport yuksak madaniyat, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi. Bu sohada erishilgan yutuqlar mamlakatni dunyoga tanitadi, barcha yurtdoshlarga g'urur-iftixor bag'ishlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to,„g,,risida"gi PQ- 3031-sonli Qarori.
2. K.D. Yarashev «Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish» Toshkent Abu Ali Ibn Sino nashriyoti 2002-yil.
3. Xasanova, G. (2021). БОЛАГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ТАЪЛИМНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ТАРБИЯЧИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТСИЯСИНИНГ АХАМИЯТИ. *Scienceweb academic papers collection*.
4. Xasanova, G. (2021). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI NUTQINI GRAMMATIK TUZILISHINI SHAKLLANTIRISH. *Мактабгача таълим журнали, 4(Preschool education journal)*.
5. Xasanova, G. (2021). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARGA QO'L MEХNATI ORQALI AQLIY TARBIYA BERISHNING MAZMUNI. *Мактабгача таълим журнали, 4(Preschool education journal)*.
6. Xasanova, G. I. Q. (2021). INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YO'NALISHI TARBIYACHILARINING PEDAGOGIK QOBILIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *Academic research in educational sciences, 2(12), 826-830*.
7. Xasanova, G. (2021). SHARQ MUTAFFAKKIRLARINING OILADA FARZAND TARBIYASIGA OID QARASHLARI. *Мактабгача таълим журнали*.
8. Xasanova, G. (2021). ПЕДАГОГ ТАРБИЯЧИЛАРНИНГ ИЛМИЙ ПЕДАГОГИК КОМПИТЕНТЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ MAZMUNI. *Мактабгача таълим журнали*.
9. Xasanova, G. (2021). ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ПЕДАГОГЛАРИНИНГ КРЕАТИВ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ MAZMUNI. *Academic research in educational sciences, 2(1)*.
10. Xasanova, G. I. Q. (2021). Болага йўналтирилган таълимни амалга оширишда тарбиячининг касбий компетентсиясининг ахамияти. *Academic research in educational sciences, 2(9), 1051-1056*.

#### **Internet manbalari.**

1. [www.google.uz](http://www.google.uz)
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
3. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)